


Mavzu: Ozon qatlami va uning insoniyat uchun ahamiyati

Reja:

1. Ozon qatlami haqida tushuncha va uning mohiyati.
2. Ozon qatlamining yemirilish sabablari.
3. Ozon qatlamining yemirilishiga qarshi bajarilayotgan chora-tadbirlar.
4. 16-sentabr xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni.

Ozon qatlami

Ozon qatlami yer Atmosferasining bir qismini tashkil etadi va ozonning yuqori konsentratsiyasiga ega. Ushbu qatlam quyoshning qattiq ultrabinafsha nurlarining qariyb 93-99% ini tutib qoladi, aks holda ushbu nurlanish sababli yerda hayot qolmasdi. Ozon qatlami asosan strotosferaning pastki qismida, yer sathidan 10-50 km balandlikda joylashgan.




- Olimlar XX asr boshidan atmosferadagi ozon qatami holatini kuzatib kelarkan, bugungi kungga kelib nafaqat mulohazalar, balki maktab o'quvchisi ham ozon qatlami ultrabinafsha nurlarning atmosferaning pastki qatlamlariga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydigan o'ziga xos tabiiy filtr ekanini yaxshi biladi.
- O'tgan asrning 70-yillari oxiriga kelib olimlar ozon qatlamining to'xtovsiz qisqarayotgani haqida bong ura boshlashdi. Bu emiritishga sanoatda foydalaniladigan xlor yoki brom molekulalari mavjud ozonni emiruvchi moddalar (OEM) sabab bo'ldi.




- Inson tomonidan atmosferaga chiqarilgan xlorfluorog'azlar (XFU) va boshqa OEMlar stratosferaga ko'tarilgach, quyoshning qisqa to'liqinli ultrabinashfa nurlari ta'siri natijasida xlor atomlari molekuladan ajralib chiqadi. Xlor o'z navbatida ozon molekulalarini birma-bir parchalaydi, lekin bu jarayonda o'zi hech qanday o'zgarishga uchramaydi. XFUlar atmosferada 74 yildan 111 yilgacha "yashaydi".
- Shifokorlarning fikricha, bir foiz ozon yo'qolganda Er yuzida katarakta xastaligi 150 mingtagacha ortadi, teri raki 2,6 foizga ko'payadi, inson immun tizimi zaiflashishi bilan bog'liq kasalliklar soni oshadi. UB-nurlanishdan faqatgina odamlar emas, balki boshqa jonzorlar ham aziyat chekadi..



- Ozon qatlamining yemirilishi biz yashab turgan olam, bashariyat halokati bilan barobardir.
- Ma'lumki, yer yuzasidan 10 dan 50 kilometrgacha bo'lgan masofada joylashgan ozon qatlamining miqdori uch milliard tonnadan iborat bo'lib, u havoning milliondan uch foizini tashkil etadi. Ammo taraqqiyot shiddati va odamzotning o'ziga qulaylik yaratishi natijasida ozon qatlamiga jiddiy shikast yetayotganini ham yoddan faromush qilmasligimiz kerak.



Hozirda eng katta ozon tuynuklari yer sharining janubiy va shimoliy qutblarida paydo bo'lgani taassuf va xavotir bilan aytilmoqda. 1985 yili Antarktida, 1992 yili Arktikada ozon tuynugi hosil bo'lganligi qayd etildi. Quyosh ultrabinafshanurlarining hech qanday to'siqsiz yerga yetib kelishi havo haroratining ko'tarilishi va asriy muzliklarning erishiga sabab bo'lmoqda. Suv ostida yashaydigan planktonlar, mayda qisqichbaqalar, krablar, suv o'tlariga bu o'zgarish, ayniqsa, halokatli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, iqlimning o'zgarishi, cho'llanish, aholi o'rtasida turli xastaliklarning tarqalishi, global isish jarayoni sodir bo'ladi.



- Jahon hamjamiyati bu xatarning oldini olish maqsadida ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. 1985 yilda "Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risida"gi Vena konventsiyasi qabul qilingan bo'lsa, 1987 yilning 16 sentyabrida O'EMning alohida shakllarini cheklash, ularni ishlab chiqarish va foydalanishni butunlay to'xtatish majburiyatini ko'zda tutadigan chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan Monreal bayonnomasi imzolandi. Ma'lumotlarga qaraganda, Vena konventsiyasiga 184 mamlakat qo'shilgan bo'lsa, Monreal Bayonnomasini 183 davlat imzolagan. Bayonnomaning London tuzatishini 163 davlat, Kopenhagen tuzatishini - 141, Monrealdagini - 81, Pekin tuzatishini esa 34 mamlakat ratifikatsiya qilgan.

16-sentabr xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni.

- 1987 yil 16 sentyabrda ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli ishlab chiqildi. Ushbu hujjat asosida ozon qatlamini buzadigan kimyoviy moddalarning ro'yxati tuzilib, ulardan foydalanish to'xtatildi yoki ma'lum cheklovlar qo'yildi. Har yili 16 sentabr Monreal protokoli qabul qilingan kun — Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni sifatida nishonlanadi.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT

